O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TIZIMIDA “KREDIT – MODUL” TIZIMINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mamarasulov Sobirjon Odiljon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va Psixologiya” yo‘nalishi 2-magistri
e-mail: sobirjon5464@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim tizimining bugungi kundagi ta’lim jarayonini tashkil etishdagi asosiy o‘zgarishlar, ta’limni Kredit-modul tizimi uning vatanimizda joriy etilishi, ahamiyati, yutuqlari, muammolari va jahon standartlariga tenglasha olish uslublari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimi, ta’limning Kredit-modul tizimi, butun jahon standarti, ta’limdagi o‘zgatishlar, ta’limdagi qulayliklar, ta’limdagi muammolar, ta’limdagi yutuqlar va muvaffaqiyat.

Abstract: This article shows the main changes in the organization of the educational process of the higher education system of the Republic of Uzbekistan today, the introduction of the credit-module system of education in our country, its importance, achievements, problems and methods of bringing it up to world standards.

Keywords: Uzbekistan higher education system, credit-modular system of Education, World standard as a whole, educational developments, educational facilities, educational problems, educational achievements and success.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan ustuvor vazifalardan biri bu – ta’limda sifatni yaxshilash va takomillashtirish hisoblanadi. Ta’limdagi islohotlar kelajakda katta samara berishini rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yaqqol isbotlab turibdi. Bugun mamlakatimizda aynan ta’lim sohasiga yangicha boshqaruv tizimlarini joriy etish, ta’lim jarayonini tashkil etish darajasini jahon tajribasi asosida rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va kelajakda mutaxassislarning mas’uliyatini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Ayni damda insoniyat olamida turli o‘zgarishlar, yutuqlar, kamchiliklar va xavflar ortib bormoqda. Buni har bir jabxada ko‘rish, kuzatish, anglash mumkin. Yurtimizda masofaviy ta’limning shakllanib, rivojlanib borishi, ilk davri kamchiliklarsiz bo‘lmasligi tajribalardan ma’lum. Masofaviy ta’limning qulayliklari keng bo‘lib, unda o‘qituvchi va o‘quvchi erkin faoliyati olib borish imkoniyatlariga (vaqt va masofa nuqtai nazaridan) egadir.

Muhokama va natijalar. Ilm va bilimning shakllanishi bevosita ta’lim tizimiga bog‘liq. Ta’lim tizimini samaradorligi professor - o‘qituvchilar salohiyatini oshirish, talabaning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv adabiyotlari mazmuni va maqsadlarini to‘g‘ri belgilash, mustaqil ta’limni shakllantirish bilan o‘zaro bog‘liq. Ana shu bog‘liklikni o‘zida aks etgan, yana bir ta’lim tizimi, butun Respublikamiz uchun yangi hisoblangan tizim bu – ta’limniing “Kredit-modul” tizimi.

Mamlakatimiz OTM (Oliy ta’lim muassasa)larida ham bosqichma - bosqich kredit-modul o‘qitish tizimiga o‘tish ishlari boshlab yuborilgan. Hususan, 2030 yilgacha kredit-modul tizimi joriy etiladigan OTMlar soni 2 tadan 85 taga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Ta’limda modul – bu alohida individual o‘quv fani. O‘zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi. Bu bir nechta fan hamda kurslar o‘rganiladigan o‘quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma’lum bir bilim va ko‘nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Xorijiy tajribaga ko‘ra, kredit-modul tizimida o‘quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo‘ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o‘zaro uzviy to‘ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi.

Kredit-modul o‘qitish tizimi esa, har bir o‘quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo‘lib, o‘quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta’limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot “kredit soati” tushunchasini iste’molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o‘lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o‘qish va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish talabalarga o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta’lim texnologiyalarini- takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

“Kredit (credit) – talabaning alohida ta’lim yo‘nalishi yoki dasturi bo‘yicha fanlarni o‘qib o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun sarflangan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligidir. Kredit — talabalarning me’yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va

mustaqil ravishda ta’lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o‘lchovidir. Talabaga kredit ma’lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng beriladi. Har bir talaba kelajakda tanlagan yo‘nalishi va mutaxassisligi bo‘yicha diplomga ega bo‘lishi uchun kreditlarni yig‘ib borishi lozim. To‘plangan kredit talabaga butun umr davomida o‘zining malakasini oshirib borish yoki qo‘shimcha oliy ma’lumot olishiga hizmat qilib boraveradi.

Kredit to‘plash o‘lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo‘lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog‘da, baholash tizimi va ta’lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko‘zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta’limga urg‘u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga hizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o‘qituvchilarning mobilligini, ya’ni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa OTMga to‘siqlarsiz, erkin ravishda o‘tishini (o‘qishni yoki ishni ko‘chirish) ni ta’minlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha barcha o‘quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig‘indisi talabaning tanlagan -dasturi bo‘yicha nimani qancha o‘zlashtirganligini namoyon etadi.

Kredit-modul tizimi, bu – ta’limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari:

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

- o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ningqiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi.

O‘zbekiston Oliy o‘quv yurtlarida “Kredit - modul” tizimining qo‘llanilishi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida” nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomda esa kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

GPA =K1U1+K2U2+K3U3…+KnUn : K1+K2+K3…+Kn ga tengdir.

Bunda:

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

Kredit – ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

Kredit to‘plash – ta’lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash;

Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to‘plash va xohlagan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lish imkoniyatini beradigan yo‘nalish (marshrut).

O‘qish yuklamasi – talaba tomonidan o‘quv faoliyatining barcha turlari – ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan soatlar hajmi asosida belgilanadi.

Mazkur tizimning oliy ta’limga joriy qilinishi o‘qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga barham berish, ta’lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabaning mustaqil o‘qib-o‘rganib, o‘z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko‘hna qit’aning deyarli barcha oliy o‘quv yurtida amaliyotga joriy etilgan.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o‘qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta’limda pedagog tinglovchining o‘zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo‘naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg‘u ham talabalarning mustaqil ta’lim olishiga qaratiladi.

Ta’limning kredit tizimi talabalar almashinuvini oshiradi. Chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo‘qotmasdan bir universitetdan -boshqasiga o‘tishi mumkin. Aynan ushbu -tizim o‘zbekistonlik talabalarning ilg‘or xorijiy universitetlarda o‘qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to‘siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday tizim rivojlanishi uchun yangiliklarni joriy qilishga ehtiyoj sezadi. Shunday ekan OTMlarida kredit-modul tizimini joriy qilish va uni rivojlanishi OTMlarida yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha yetuk kadr bo‘lishi, ishga joylashishida, professor o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga, OTMlarida o‘quv-moddiy bazani rivojlantirishga, akademik mustaqilligini ta’minlashga, OTMlarida talaba, professor-o‘qituvchilarni o‘zaro almashishda (chet el OTMlari bo‘ycha ham) qulayliklar tug‘diradi, O‘zbekiston Respublikasini Bolonya jarayonlarida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritishida va boshqalarni amalga oshirishda katta yordam beradi.

Foydaalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 1-ilovasi, 9- bandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. Axmedova S. R. Masofaviy ta’lim va uning horijiy tillarni o‘qitishdagi o‘rni //Science and Education. - 2021.

5. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Muassasalarida ECTS Kredit- Modul Tizimi: Asosiy Tushunchalar va Qoidalar. 2020.